

SHEKSPIR IJODIDA TRAGEDIYA JANRI “HAMLET” ASARI MISOLIDA

Sultonboyeva Gulsoraxon

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi. FarDU.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118431>

Izoh: Ushbu maqolada Shekspir tragediyasiga xos jihatlari o'rganiladi. Uning asarlarining adabiy tabiati “Gamlet” tragediyasi kontekstida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: dramaturgiya, tragediya, tasvir, holat, konflikt, Shekspir, Hamlet.

Аннотация: В этой статье исследуются уникальные аспекты трагедии Шекспира. Литературная природа его произведений анализируется в контексте трагедии “Гамлет”.

Ключевые слова: драматургия, трагедия, образ, ситуация, конфликт, Шекспир, “Гамлет”.

Abstract: This article explores the unique aspects of Shakespeare's tragedy. The literary nature of his works is analyzed in the context of the tragedy “Hamlet”.

Key words: dramaturgy, tragedy, image, situation, conflict, Shakespeare, “Hamlet”.

Drama adabiyotning ma'lum darajada taraqqiy etgan sohalaridan biridir. Barchaga ma'lumki, tragediya so'zi yunoncha “tragoidia” so'zidan kelib chiqqan bo'lib “echki qo'shig'i” degan ma'noni bildiradi. Chunki qadimgi Yunonistonda teatr ijrochilari echki terisidan tikilgan liboslar kiyishgan.

Tragediya zamonaviy dramaning baxtsizlikka olib keladigan, markaziy muammolar xuddi qadimgi drama kabi qayg'uli yakun topib, asar qahramonining fojeasi millat tanazulli bilan tugaydigan asarlarga nisbatan ishlatiladi. Bunga esa, odatda, axloqiy zaiflik, psixologik moslashuv, ijtimoiy bosim o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shekspir tragediyasi o'ziga xosligi bilan boshqa fojeali asarlardan ajralib turadi. Shekspir tragediyalarida asarga xos barcha usurlar ishtirok etadi. Fojeaga sababchi bo'luvchi qahramon tragediyaning eng muhim elementlardan biridir. Yozuvchining asarlarida fojeali qahramon, asosan, bir kishidan iborat bo'lib qahramon erkak yoki ayol bo'lishi mumkin. Fojeali qahramon muqarrar qism aziyat chekkan eng qayg'uli odam bo'lishi shart.

Mashhur olim Endryu Sesil Bredlining aytishicha, “Shekspir tragediyasi bu aslida hikoyadir. Shunday hikoyaki, azob –uqubat va ofat bilan yakun topadi.”¹ Shekspir fojeali qahramonining muhim tomoni shundaki, u oddiy inson emas. U mamlakat shohi yoki mamlakatning obro'li, zodagon fuqarolaridan yoki taniqli shaxs.

*Hamlet: Ey, osmon! Ey, zamin! Qay bir qiblagoh
Yana tinglar meni? Balki, qora jahannam?
Yurak, chiqib ketma, to'xta! Yurak, ber chidam!
Oyoqlarim bukilmangiz! Tutingiz raso!
U “Unutma” dedi. Sira unutarmanmi?
Bechora ruh, shu shikasta kallada chindan
Bir xotira yashar ekan, unutarmanmi?
Men xotiram ko'zgusidan o'chirgum tamom
Taassurotlarimning butkul alomatlarin,*

¹ Endryu Sesil Bredli. Shakespearan tragedy, L.,1904.185-bet.

*Kitoblardan olgan so'zlar, hikoyatlarim,
Bolalikdan mushohada lavhiga tushgan
Tasavvurlarim-u sir-u sinoatlarim,
Xotiramning butun daftar, butun kitobin
Olaquroq qilmay, yaksar yozib chiqarman –
Yolg'iz sening so'zing, sening farmoning bilan,
Xuddi Tangri qarshisida tikka turganday!²*

Misol uchun Hamlet –Daniya shahzodasi. U aqlli, ochiqko'ngil, kelishgan hamda mulohazali. Qahramon shunchalik muhim shaxski, uning o'limi butun boshli g'alayon va tartibsizliklarni keltirib chiqaradi. Hamlet otasining o'limi uchun amakisidan qasos olganida u, nafaqat, amakisiga, balki, o'ziga ham o'limni ravo ko'radi. Xiyonatkor Klavdiy Hamletdan qutulish uchun Poloniyni o'g'li mohir qilichboz Laertni shahzoda bilan duelga gigijlaydi. Hamlet sal yaralansa ham o'lishi uchun Laert o'z qilichiga zahar surtib oladi. Klavdiy esa Hamletga atalgan sharobga zahar qo'shadi. Hayajonlangan malika Hamletning sharobini ichib, halok bo'ladi. Buni ko'rgan shahzoda amakisini zaharli qilich bilan yarador qiladi. Qizg'in jang davomida qurollar almashinib, Hamlet ham, Laert ham zaharlangan qilichdan yaralanishadi va halok bo'lishadi.

Shekspir tragediyalarida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasvirlangan. Uning aksariyatida yovuzlik timsollari yovuzlikning hukmronligi va yaxshilikni bostirish bilan shug'ullanadi. XIX asrning taniqli shoir va adabiyotshunosi Edvard Doudenning so'zlariga ko'ra "Shekspir tomonidan o'ylab topilgan fojia inson hayotini va ruhini tiklashga qaratilgan fojeadir. Boshqacha aytganda, uning mavzusi dunyodagi yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashdir."³

"Hamlet" fojiasida insoniyat paydo bo'lgandan beri yonma-yon kelayotgan ezgulik va yovuzlik, xiyonat va sadoqat, jinoyat va jazo singari sifatlar o'rtasidagi kurash tasvirlangan. O'sha davrning barcha gumanistlari singari Shekspir ham insonni har jihatdan yetuk, kamchiliklardan xoli, odam degan mukarram nomga munosib ko'rishni istaydi.

*Mana, sizga ikki Surat: mana va mana.
Qo'sh suvratda turar og'a-ini siymosi.
Qarang, qancha jozibalar jamdir birida.
Zevs manglayidek xuddi manglayi ochiq.
Sochi Appolonning barra sochidek quyuq.
Marsning nazaridek uning nigohi mag'rur.
Turishida bulut osha tuproqqa tushgan
Elchi Merkuriyning so'nmas salobati bor.
Bu – birinchi eringizdir. Mana bu esa –
Ikkinchisi. Kasal tekkan boshqqa o'xshar –
Toza boshq yonida. Hoy, ko'zingiz qayda?
Sevgi demang. Sizning yoshda bo'ron bilanmas,
Kalla bilan yashagaylar. Aytingiz o'sha –
Tafovutni taniydigan kalla qayoqda?
Bas, qaysi bir iblis sizni kuppa-kunduzi*

² Shekspir V."Hamlet". Ingliz tilidan tarjima. M. Lozinskiy. M: Nashiriyotchi: AST Astrel, 2011, 67-bet

3. Edvard Douden. Shakespeare: A Critical Study of His Mind and Art, 1875. 230-bet.

Yo'ldan ozdirdi-yu, shundoq ko'ylarga soldi?

Ko'zlari ko'r, quloqlari kar bo'lganda ham

Shuuriga bir ozgina suyangan odam

Bundoq adashmasdi, bo'yla qo'ymasdi qadam.⁴

Yuqoridagi parchada Hamlet o'z onasiga murojaat qiladi. Qalbi larzaga kelgan holati alamli ochib beriladi. Asarda ezgulikka intilgan zotlar va hokimiyatga erishish yo'lida yovuzlik qilgan kimsalar taqdirining o'zaro kesishgan nuqtalari tasvir etilgan. Manfaatparastlik, xudbinlik shunday illatki, unga yo'liqqan kimsa o'zgalarga zug'um qilmasligi, zarar yetkazmasligi mumkin emas. Munofiq va shuhratparast Klavdiy tug'ishgan akasi bo'lmish qonuniy qirolni xiyonatkorlarcha o'ldirib, mamlakat taxtini egallaydi. Manfaatparastlik shunday kasallikki, istaklari qondirilgani sayin talablari ortib boraverdi. Shu bois yolg'on qirol Klavdiyga taxtning o'zi kamlik qiladi. Qirolning o'limidan bir oy o'tib-o'tmay, u akasining bevasi bo'lmish malikaga ham uylanadi. Yovuzlik ham o'rgimchakning to'ri kabidir. O'rgimchakning to'riga pashsha ham, uni quvlab kelgan ari ham ilinib qolavergani singari, yovuzlik mazlumni mahv etgani kabi zolimni ham komiga tortadi. Yomonlik hech qachon yolg'iz yurmaydi. Biri boshqasini keltirib chiqaradi.

Shekspir asarlarida hech qachon yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qilmaydi. Shekspir tragediyalarining bosh qahramonlari halol va yaxshi insonlar. Asar qahramoninig qiyinchiliklari, ko'rgan azoblari bizni unga hamdard bo'lishga chaqiradi. Yovuz odamlarning harakati bizni unga nisbatan g'azabimizni uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, Shekspirning "Hamlet" tragediyasi asarlar davomida o'z qadr-qimmatini, badiiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki asar qahramonlari har jihatdan yetuk, mukammal yoritilgan. Asardagi har bir qahramon xarakteri ustida jiddiy yondashilgan. Shekspir asarlari oradan qancha yil o'tsa-da, hech qachon kitobxonlar qo'lidan va qalbidan tushmay kelishining ham boisi ana shundandir.

References:

1. V. Shekspir "Romeo va Julyetta"-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti - 1984.23-bet.
2. B. Jalilov (1984) O'zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari, 78-bet.
3. Hotamov N, Sarimsoqov B. (1983) Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati, 56-bet.
4. Anikst A.A. (1961) Gamlet. Shekspir to'plami / Ed. Aniksta A.A va Shtayn A. M.: Nauka, 87-bet.
5. Belinskiy V.G. (1953) To'liq to'plam Sochi, II jild, M.: Fanlar akademiyasining nashriyoti, SSSR,78-bet.
6. Z.I. Plavskin (1987) XVII asr chet el adabiyoti tarixi / Ed. – M., 48-bet.
7. V. Shekspir. (2011) Gamlet, Daniya shahzodasi. Ingliz tilidan tarjima. M.Loziyskiy. M.: Nashriyotchi: AST Astrel, 12-bet.
8. Shvedov Yu. (1975) Uilyam Shekspir. Tadqiqot. M., 49-bet.
9. Shekspir V. "Hamlet". Ingliz tilidan tarjima. M. Loziyskiy. M: Nashriyotchi: AST Astrel, 2011

⁴ Shekspir V. "Hamlet". Ingliz tilidan tarjima. M.Loziyskiy. M:Nashriyotchi:AST Astrel,2011,34-bet